

## ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVIDA SIYOSIY YETAKCHILARNI BAHOLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Mardanov Sardorbek Zafar o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy Fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi

Siyosat-22/A1 guruhi 3-kurs talabasi

O'zbekiston Respublikasi. Toshkent sh.

E-pochta: [davronovz73@gmail.com](mailto:davronovz73@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15695273>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy davlat boshqaruvida siyosiy yetakchilarning faoliyatini baholashning nazariy asoslari keltirib o'tiladi. Bu borada bir qator olimlar va tatqiqotchilarning ishlariga tahliliy baho beriladi. Mazkur maqolada siyosiy yetakchilarning faoliyatini baholash zarurati va dolzarblik xususiyatlari ham tahlil qilinadi. Zamonaviy davlat boshqaruvida siyosiy yetakchilarning faoliyat dinamikasiga nisbatan yondashuvlar va ular asosidagi nazariy tatqiqot ishlari konteksi haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Shuningdek, hozirgi vaqtda dolzarb bo'lgan muammo siyosiy yetakchilarning asosiy konseptual strukturasi tuzish orqali amaliy faoliyat vektorlarida samaradorlik ko'rsatkichlari haqida ham ma'lumotlar berib boriladi.

**Kalit so'zlar:** Siyosiy yetakchi, davlat boshqaruvi, siyosatshunoslik, siyosiy hokimiyat, siyosiy usul va texnologiyalar, davlat, jamiyat, siyosiy ilmiy-tatqiqot ishlari.

## CONCEPTUAL FOUNDATIONS FOR EVALUATING POLITICAL LEADERS IN MODERN PUBLIC ADMINISTRATION

**Abstract:** This article presents the theoretical foundations for evaluating the performance of political leaders in modern public administration. In this regard, an analytical assessment is given to the work of a number of scientists and researchers. This article also analyzes the need and relevance of evaluating the performance of political leaders. Information is provided about approaches to the dynamics of political leaders' activities in modern public administration and the context of theoretical research based on them. It also provides information on performance indicators in practical activity vectors by establishing the basic conceptual structure of political leaders, which is currently a pressing problem.

**Keywords:** Political leader, public administration, political science, political power, political methods and technologies, state, society, political research.

## КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ПОЛИТИЧЕСКИХ ЛИДЕРОВ В СОВРЕМЕННОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ

**Аннотация:** В статье представлены теоретические основы оценки деятельности политических лидеров в современном государственном управлении. В этой связи дается аналитическая оценка работам ряда ученых и исследователей. В статье также анализируется необходимость и актуальность оценки деятельности политических лидеров. Приведены сведения о подходах к динамике деятельности политических лидеров в современном государственном управлении и контексте теоретических исследований на их основе. Он также предоставляет информацию о показателях эффективности в практических векторах деятельности, устанавливая базовую концептуальную структуру политических лидеров, что является актуальной

проблемой.

**Ключевые слова:** Политический лидер, государственное управление, политология, политическая власть, политические методы и технологии, государство, общество, политические исследования.

### **KIRISH.**

Zamonaviy davlat boshqaruvining modernizatsiyasi va jamiyat bilan kommunikatsion munosabat shakllarining oshib borishi, siyosiy qadriyat va siyosiy madaniyatlarning takomillashib borishi, ularning siyosiy tizim doirasidagi murakkab transformatsiyasi, siyosiy yetakchilarning faoliyatiga tahliliy baholarni berishni va qayta ko'rib chiqishni shakllantirdi. Bu esa, davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanat impulsida muhim o'rin tuta boshladi.

Siyosatshunoslikda dolzarb tatqiqot ishlaridan biri, siyosiy yetakchilik faoliyatini o'rganishdir. Bu o'rinda quyidagi tushunchalar mohiyatini anglash lozim:

Yetakchi (lider) – bu boshqa kishilarga ta'sir etish demakdir. Lider va uning izdoshlari o'rtasida o'zaro munosabatlar mavjud bo'lib, u liderdan guruh a'zolariga qarab har doim bir tomonlama yo'naltirilgan bo'ladi.

Yetakchilik (liderlik) – bu boshqaruvchanlik maqomi, qarorlar qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy pozitsiyadir.

Siyosiy yetakchilik (siyosiy liderlik) – bu siyosat bozorida amalga oshiriladigan maxsus tadbirkorlik shaklidir. Bunday raqobatchilik kurashuvida tomonlar ijtimoiy vazifalarni yechish bo'yicha dasturlar bilan almashinadilar<sup>1</sup>.

XXI asrda uch definitsiyaning o'rni ya'ni, "Globalizm", "Modernizm", "Konservatizm" tushunchalarining progressiyasi va dinamik nuqtalardagi o'sib boruvchan qobiliyati barcha sohalar singari davlat boshqaruvi sohasi elementlariga ham ta'sir qildi. Xususan. siyosiy yetakchilarning faoliyati va ularning harakat chiziqlariga siyosat subyektlarining va jamiyatning kognitiv qiziqishi va xulq-atvor doirasi jiddiy e'tibor qarata boshladi. Mazkur davlat boshqaruvida siyosiy yetakchilarni baholashning siyosiy mexanizmlarini konseptual jihatdan asoslagan bir qator xorijiy olimlar mavjud. Ularning ilmiy yondashuvlari va nazariyalari bir qator ilmiy tatqiqot ishlarida tavsiflangan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI.**

Siyosatshunoslik sohasining ilmiy-amaliy yo'nalishi bo'lgan davlat boshqaruvida siyosiy yetakchilar faoliyatini tatqiq etish va tahlil qilish hamda ularning faoliyatiga muayyan tatqiqot usullari orqali yondashish davlat boshqaruvi sohasidagi tatqiqotlarchining ilmiy ishlari markazi bo'lib kelmoqda. Mazkur tatqiqot ishlari siyosiy elitalarni tatqiq etishdan boshlandi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan siyosiy hayotning yanada markaziylashishi va byurokratlashuvi natijasida liberal – demokratik qadriyatlar va vakillik boshqaruvi tajribasini tanqidiy qayta baholash davri bo'ldi. Bu o'z ifodasini Vilfredo Paretoning (1848-1941) "Elitalar nazariyasi" va Gaetano Moskaning (1858-1941) "Siyosiy sinflar" konsepsiyasida o'z ifodasini topdi. XX asr boshlarida siyosatni tatqiq etishning elitar yondashuvi "Manfaatdor guruhlar" (A.Bentli) deb nomlanuvchi va jamiyat va davlatda hokimiyatni amalga oshirish ishlarida byurokratiyaning tartibga soluvchi ahamiyatining yangi qarashlari bilan to'ldiriladi. Ijtimoiy-guruhiy tahlil siyosatining alohida ko'rinishini "Teknokratiya" va

<sup>1</sup> Biturayev O'.B. Siyosatshunoslik kirish (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Barkamol fayz media", 2017, 169-b.

“Texnodemokratiya” konsepsiyalari (D.Bell. M.Dyuverje va boshqalar) tashkil etadi<sup>2</sup>.

Siyosiy yetakchilar faoliyatiga o‘z ilmiy asarlari orqali yondashgan olimlar va tatqiqotchilar mazkur “Siyosiy yetakchi” fenomenini institutsional jihatdan, sotsiologiya, huquq, tarix, falsafa va ijtimoiy-gumanitar fanlar hamda siyosatshunoslik fani nuqtai nazaridan tatqiq eta boshladilar.

Nemis sotsiologi va siyosatshunos olimi Maks Veberning (1864-1920) “The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism” (1905) ya’ni “Protestant axloqi va kapitalizm ruhi” asarida siyosiy elita va yetakchilik borasida institutsional paradigмага xos bo‘lgan sotsiologik va siyosiy tatqiqot usulini ya’ni empirik (amaliy) baholash usulini keltirib o‘tadi. Bu usul orqali siyosiy yetakchilarning faoliyati va samaradorlik ko‘rsatkichini baholash mumkinligini ta’kidlaydi. Bu asarda siyosiy yetakchi portreti “Jamiyat” va “Davlat” tushunchalari o‘rtasidagi munosabatda “Ijtimoiy portret” shakli orqali uning faoliyatiga siyosiy baho berish mumkinligi asoslanadi<sup>3</sup>. Maks Veberning “Economy and Society” ya’ni “Iqtisodiyot va jamiyat” asarida esa, siyosiy yetakchining faoliyati uchun boshqa muhim komponentlarning ham o‘rni muhimligi ta’kidlanadi. Bunda qaror qabul qilishda jamiyat va iqtisodiy richaglarning tutgan roli va ahamiyati baholanadi. Siyosiy yetakchilarning faoliyatida mazkur 2 tushuncha “Iqtisodiyot” va “Jamiyat” defenitsiyalari ilgari suriladi<sup>4</sup>. XX asrning o‘rtalarida siyosiy yetakchilarning faoliyatiga empirik jihatdan baho berish siyosiy hokimiyat legitimligining ko‘rsatkichlarini baholashda muhim o‘ringa ega bo‘la boshladi. Robert Dalning “Who Governs: Democracy and Power in An American City” (1961) ya’ni “Kim boshqaradi: Amerika shahrida demokratiya va kuch” asarida siyosiy hokimiyatning tarqalishini va yetakchilikni empirik so‘rovlar asosida o‘rganadi va bu usul orqali siyosiy yetakchilarga xos bo‘lgan barcha asosiy boshqaruv qobiliyatlari va xulq-atvorini demokratik usullar orqali ya’ni bevosita jamiyatning siyosiy irodasi orqali baholash ya’ni sotsiologik tatqiqot orqali siyosiy yetakchi faoliyatiga aloqador bo‘lgan axborotlarni to‘plash va qayta ishlashdan iborat bo‘lgan. Keyingi davr uchun mazkur asar siyosiy hokimiyatda siyosiy yetakchilarning boshqaruv kompetensiyalarini ko‘rsatib berdi<sup>5</sup>. Robert Dalning “Democracy and Its Critics” (1989) ya’ni “Demokratiya va uning tanqidchilari” asarida bevosita siyosiy hokimiyat va siyosiy yetakchilarning rolini chuqur nazariy va amaliy tatqiqot usuli orqali baholashni nazarda tutadi. Ushbu nazariy asarda siyosiy yetakchilarning faoliyati demokratik rejim uchun mustahkam asos ekanligi va uning barqarorligi zarur ekanligi yoritib beriladi. Robert Dal bu ikki asar orqali siyosiy yetakchilar faoliyatiga bixevioral va amaliy usullar dinamikasi orqali baho bergan hisoblanadi<sup>6</sup>. Amerikalik olim Chikago sotsiologiya maktabi vakili Garold Lassuell (1902-1978) “Psychopathology and Politics” (1930) ya’ni “Psixopatologiya va siyosat” asarida siyosiy psixologiya va siyosiy yetakchilarning shaxsiyati, xulq-atvori va siyosiy psixologiyasi orqali

<sup>2</sup> Muhitdinova F.A. Siyosiy va huquqiy ta’limotlar tarixi. Darslik. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti. 2011. 224-b.

<sup>3</sup> Weber Max. The Protestant ethic and the spirit of capitalism. New York: Charles Scribner’s sons. London: George Allen & Unwin LTD. 1905. P.126-134.

<https://archive.org/details/protestantethics00webe/page/126/mode/2up>

<sup>4</sup> Weber Max. Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology. University of California Press, 1978. P. 345. [https://books.google.co.uz/books/about/Economy\\_and\\_Society.html?id=pSdaNuIaUUeC&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/Economy_and_Society.html?id=pSdaNuIaUUeC&redir_esc=y)

<sup>5</sup> Robert A. Dahl. Who Governs: Democracy and Power in an American City. N.Y: Yale University Press. 1961. P. 355. [https://books.google.co.uz/books/about/Who\\_Governs.html?id=g1oLAQAIAAJ&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/Who_Governs.html?id=g1oLAQAIAAJ&redir_esc=y)

<sup>6</sup> Robert A. Dahl. Democracy and its critics. Yale University Press, New Haven and London 1989. P.231.

[https://books.google.co.uz/books?id=VGLYxulu19cC&printsec=frontcover&redir\\_esc=y#v=onepage&q&f=false](https://books.google.co.uz/books?id=VGLYxulu19cC&printsec=frontcover&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false)

baholashni nazarda tutadi. Biroq, buning o'zi siyosiy yetakchilar faoliyatida yetarlicha emasligini ham ta'kidlaydi. Chunki siyosiy yetakchilik faoliyati jarayoni murakkab va o'zgaruvchanligi bois, undagi muayyan siyosiy, psixologik qobilyatlar va xarakterlar ham dialektik ravishda rivojlanib borishini nazarda tutadi.<sup>7</sup> Ushbu olimning boshqa yana bir asari bo'lgan "Politics: Who Gets What, When, How" (1936) ya'ni, "Siyosat: kim nimani, qachon, qanday qilib oladi" asarida esa, siyosatshunoslik sohasidagi klassik davr metodlarini namoyish etuvchi mazkur asarda siyosiy yetakchilarning qaror qabul qilishdagi qobilyati va ko'nikmalarini nazarda tutadi. Mazkur olim o'z ilmiy tatqiqotida siyosiy kommunikatsiya siyosiy texnologiyasi orqali siyosiy yetakchining davlat boshqaruvidagi diognostik va konseptual sifatini baholarini aniqlash mumkinligini nazarda tutadi. Siyosiy yetakchining faoliyatiga kommunikatsion baho berish esa, siyosiy yetakchilarning qo'l ostidagi xodimlari bilan aloqa ta'minotini yaratdi<sup>8</sup>. Siyosiy yetakchilarni faoliyatiga tahliliy-uslubiy jihatdan yondashuv borasida ham nemis siyosatshunosi va sotsiologi Maks Veberning "The Theory of Social and Economic organization" ya'ni, "Ijtimoiy va iqtisodiy tashkilot nazariyasi" asarida siyosiy yetakchilarni baholashning ularni tahliliy jihatdan 3 turga bo'lgan holda tatqiq etadi. Mazkur asarda "An'anaviy", "Xarizmatik" va "Normativ-huquqiy" yetakchilarning turlarini alohida muayyan tahlil parametrlari orqali tahlil qilish metodologiyasini ilgari suradi<sup>9</sup>. Karl Shmidt (1888-1985) "The concept of the political" ya'ni, "Siyosat konsepsiyasi" asarida siyosiy yetakchi va siyosiy qaror qabul qilish masalasi yoritiladi. Siyosiy yetakchilarning faoliyatiga davlat boshqaruvida qabul qilgan qarorlarining natijadorlik va samaradorlikka egaligi ham inobatga olinadi<sup>10</sup>. Germaniyalik olim Hanna Arendt (1906-1975) "The Origins of Totalitarianism" (1951) ya'ni "Totalitarizmning kelib chiqishi" asarida<sup>11</sup>, "On revolution" (1963) ya'ni, "Revolutsiyada"<sup>12</sup> asarlarida siyosiy yetakchilar, siyosiy hokimiyat, totalitarizm tushunchalarni nazariy va tahliliy nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Bu asarlardagi muhim paradigma bu siyosiy tizim barqarorligi, uning rivojlanishi va o'z holatini saqlashi uchun siyosiy yetakchilarning funksional ahamiyati mavjud ekanligi ta'kidlanadi. Biroq bu jarayon sirkulyatsiyasi va doimiy yangilash harakatini amalga oshirish texnologiyasi mavjudligi ham zarur deb hisoblaydi. Robert Dalning (1915-2014) yana bir ilmiy tatqiqot ishi bo'lgan. "Polyarchy: Participation and Opposition" (1971) ya'ni, "Poliarxiya: ishtirok etish va muxolifat" asarida 1970-1980-yillarda siyosiy yetakchilardagi siyosiy hokimiyat

<sup>7</sup> Harold D. Lasswell. Psychopathology and politics. New York: Viking Press. 1966. P.23.

<https://archive.org/details/psychopathologyp00lass>

<sup>8</sup> Harold D. Lasswell. Who gets what, when, how. New York: Whittlesey House. 1936. P. 14.

<https://www.cambridge.org/core/journals/american-political-science-review/article/abs/politics-who-gets-what-when-how-by-harold-d-lasswell-new-york-whittlesey-house-1936-pp-ix-264/90C407BEDE6963B3D2C84FF79C695E1E>

<sup>9</sup> Weber Max. The theory of social and economic organization. London: Oxford University Press. 1947. P.431.

[https://ia804503.us.archive.org/32/items/weber-max-the-theory-of-social-and-economic-organization-1947\\_202106/Weber%20Max.%20The%20Theory%20of%20Social%20and%20Economic%20Organization%20%5B1947%5D.pdf](https://ia804503.us.archive.org/32/items/weber-max-the-theory-of-social-and-economic-organization-1947_202106/Weber%20Max.%20The%20Theory%20of%20Social%20and%20Economic%20Organization%20%5B1947%5D.pdf)

<sup>10</sup> Carl Schmitt. The concept of the political. New York: University of Chicago Press. 1996. P.21.

[https://books.google.co.uz/books/about/The\\_Concept\\_of\\_the\\_Political.html?id=JFqV-VtjLoC&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/The_Concept_of_the_Political.html?id=JFqV-VtjLoC&redir_esc=y)

<sup>11</sup> Hannah Arendt. The Origins of Totalitarianism. New York: Meridian Books, The world publishing company. 1958. P.37. <https://archive.org/details/TheOriginsOfTotalitarianism/page/n7/mode/1up>

<sup>12</sup> Hannah Arendt. On revolution. Berlin: Revue Internationale de Philosophie. 1999. P.207-222.

<https://www.jstor.org/stable/23955552>

pog'onalarida, ularning tutgan o'rnini va roliga nisbatan tahliliy yondashadi<sup>13</sup>. Mishel Foukault (1926-1984) "Discipline and Punish" (1975) ya'ni, "Intizom va jazo" asarida "Siyosiy hokimiyat strukturasi" va "Siyosiy yetakchilik strukturasi" bilan birgalikda tahlil qilgan. Siyosiy yetakchilar faoliyatiga ijobiy baho bu asarda ushbu siyosiy etakchilarning siyosiy hokimiyat resurslarini qanday taqsimlashida aniq namoyon bo'ladi. Siyosiy yetakchilarning faoliyatiga sifatli va miqdoriy baholash progressiyasini ilmiy asoslaydi<sup>14</sup>.

### **METODOLOGIYA VA TATQIQOT USULI.**

Mazkur maqolada siyosiy yetakchilarni baholash va ularning faoliyat vektorlari orqali davlat boshqaruvidagi ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish tatqiqot obyekti hisoblanib, siyosatshunoslikda bu borada tatqiqot metodologiyasi sifatida amaliy va nazariy bilimlar sembiyozini tahliliy qayta ishlash, bu boradagi kommunikatsion uzviylikni aniqlash va ularning analogik tartibini keltirish maqsad qilingan. Bu borada bir qator olimlarning nazariy-ilmiy yondashuvlari va siyosatshunoslikda keng qo'llaniladigan ekspert so'rovnoma tahlili, ma'lumotlar konseptualizatsiyasi hamda axborotlar kontekstini tizimli o'rganish usullaridan foydalanilgan. Ushbu tatqiqot ishida tarixiylik, sotsiologik, kibernetik, kommunikatsionlik kabi tahlil usullaridan ham foydalaniladi.

### **NATIJALAR.**

Siyosiy kommunikatsiya usuli orqali siyosiy yetakchilarni tahlil qilishda o'z ilmiy nazariyalari va tatqiqot ishlarini ilgari surgan bir qator olimlar va nazariyotchilar mavjud. Ular orasida antik davrdan to hozirgi kungacha bo'lgan jarayonda faoliyat yuritayotgan olimlar kiradi. Yunon faylasufi Aristotel "Ritorika" asarida mazkur siyosiy yetakchilarning faoliyatiga kommunikatsion baholashda 3 unurni nazarda tutib o'tadi. Ular: "Nutq", "Ta'sir (Emotsiya)" va "Mantiq" hisoblanadi. Biroq bu uch unsur ijobiy sifatlar bilan birga salbiy jihatlarni va shakllarni paydo qilishi mumkinligi va buning natijasida jamiyat uchun tahdid va imkoniyatlar parametridagi muvozanatlar ulushida siyosiy yetakchi faoliyati muhim pozitsiyada ekanligi baholanadi.<sup>15</sup> Qadimgi rim notig'i Sitseron "Notiqlik san'ati" asarida ham Aristotelning fikrlariga o'xshash qarashlarni ilgari surgan hisoblalanadi. Lekin undagi farqli xususiyat aynan, siyosiy yetakchi faoliyatiga siyosiy imij va ko'rinish muhim deb hisoblaydi. Aynan shunday farq keyinchalik siyosiy yetakchilarning faoliyatiga baho berishda asosiy dominantlar qatoriga kiritildi. XX - asrda yuqoridagi nazariya va konsepsiyalar Deyl Karnegining "How to Win Friends and Influence People" (1936) ya'ni "Qanday do'st ortirish va odamlarga ta'sir o'tkazish mumkin" kitobi bilan ommalashadi. U bu kitobda tinglovchilarning qanday e'tiborini tortish va ularga ta'sir qilish yohud siyosiy yetakchilik faoliyati va uning samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. XX asrda dunyo iqtisodiyotida muhim o'rniga ega bo'lgan mazkur shaxsning ushbu asarida siyosiy yetakchilik XX asrda muayyan o'zgarishlarni va transformatsiyalarni boshidan kechirishini asoslaydi<sup>16</sup>. Richard

<sup>13</sup> Robert A. Dahl. Polyarchy. Participation and Opposition. New Heaven: Yale University Press. 1971. P.32. <https://www.cambridge.org/core/journals/italian-political-science-review-rivista-italiana-di-scienza-politica/article/abs/robert-a-dahl-polyarchy-participation-and-opposition-new-heaven-yale-university-press-1971-pp-257-275/E2CDE9667B59B621D5C3DE7304F3D204>

<sup>14</sup> Michel Foucault. Discipline and Punish: The Birth of Prison. Vintage Books, 1977. P.333. [https://books.google.co.uz/books/about/Discipline\\_and\\_Punish.html?id=pWv1R2o\\_PWwC&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/Discipline_and_Punish.html?id=pWv1R2o_PWwC&redir_esc=y)

<sup>15</sup> Aristotel. Ritorika. [https://lib.ru/POEEAST/ARISTOTEL/ritoriki.txt\\_with-big-pictures.html](https://lib.ru/POEEAST/ARISTOTEL/ritoriki.txt_with-big-pictures.html)

<sup>16</sup> Dale Carnegie. How to win friends & influence people. New York Post. 2021. P.12. <https://entertainment.time.com/2011/08/30/all-time-100-best-nonfiction-books/slide/how-to-win-friends-and-influence-people-by-dale-carnegie/>

Mayer u bu usulga ijtimoiy medialarning o'rnini muhimligi alohida ta'kidlab, kommunikatsion jarayonga hissa qo'shuvchi omil ekanligini ilgari surib uni fanga olib kirgan hisoblanadi. Klaudd Shannon va Varren Vieverlar siyosiy kommunikatsiya texnologiyasi asoschisi sifatida 1948-yilda siyosiy kommunikatsiya jarayonlarini modellashtirilgan yaxlit ko'rinishini texnik jarayon va modellar asosida siyosiy yetakchilarning faoliyatiga baho berishadi. Chikago sotsiologiya maktabi vakillaridan Garold Lasuell siyosiy yetakchilarning faoliyatiga siyosiy kommunikatsion usuldan tashqari "Siyosiy propaganda" vositasida ham baho berish mumkinligi hamda undagi bir qator kamchiliklarni aniqlab olish mumkinligini aytib o'tadi va ularning mazkur faoliyat vektorlarida siyosiy kommunikatsiya va propaganda vositasida fragmentatsion maxsus baholarni berib o'tadi. Mazkur masalalar uning "How says What in Which channel to Whom with What effect?" asarida keltiriladi. Paul Shatslavik, Janet Bievin va Don Jeksonlar ham mazkur muommoga "Pragmatics of Human Communication" asarida to'xtalib o'tishadi. Garold Lassuell ilgari surgan g'oyalarni ushbu asar ilmiy tahlil asosida ko'rsatib o'tadi<sup>17</sup>. Marshal Makluxan "The Medium is the message" asarida siyosiy yetakchilarning faoliyatida siyosiy media axborotlar tarmog'i ham muhim ekanligi ta'kidlanib, mazkur axborot majmuasi muayyan siyosiy maqsadlar uchun muhim aloqa ta'minoti ekanligi ko'rsatiladi<sup>18</sup>. Siyosiy yetakchilarning faoliyati va ularning davlat boshqaruvidagi samaradorlik ko'rsatkichlariga tarixiy jihatdan baholash usuli ham mavjud bo'lib, uning asoschilari va shu usulda o'z ilmiy tatqiqot ishlarini olib borgan olimlar Edvard Gibbon (1737-1794) hisoblanib, uning "The History of the Decline and Fall of the Roman Empire" (1776-1788) asarida tarixiy uslubda siyosiy yetakchilar faoliyatiga baho berilgan. Qadimgi Rim imperiyasida faoliyat yuritgan siyosiy yetakchilar, imperatorlar, konsullar, respublika asoschilari faoliyatidagi muhim ijobiy va salbiy xususiyatlar xronologiyasi ilgari suriladi<sup>19</sup>. Leopold von Ranke (1795-1886) ham tarixiy-analogik jihatdan muhim tamoyillarni ilgari suradi. Bir qator manbalarda siyosatshunoslikning muhim metodi hisoblangan "Qiyosiy tahlil" usuli ham siyosiy yetakchilarning faoliyatiga baho berishda faol metod sifatida qo'llanilishi keltirib o'tiladi. Bu usulda fransuz olimi Sharl Lui de Sekondat Monteskie (1689-1785) hisoblanib, uning "The Spirit of the Law" (1748) ya'ni, "Qonunlar ruhi" asarida mazkur metod orqali siyosat subyektlariga baho berilgandir<sup>20</sup>. Amerikalik olim Aleksis de Tokvil "Democracy in America" (1835-1840) ya'ni "Amerikada demokratiya" asarida ham qiyosiy usulda amerika demokratiyasi va uning asoschilari faoliyatiga tahliliy yondashgan<sup>21</sup>. Siyosatshunoslikda normativ jihatdan asoslash ham muhim hisoblanib, mazkur metod asosida siyosiy yetakchilarning faoliyatiga baho berish mumkin hisoblanadi. Bu yondashuv vakillari ichida qadimgi yunon faylasufi Platon "The Republic" ya'ni "Respublika" asarida, Aristotel

<sup>17</sup> Lasswell's model. Communication Theory. <https://www.communicationtheory.org/lasswells-model/>

<sup>18</sup> McLuhan Marshall. Now the Medium is the message. New York Times. Retrieved. 2018. P. 15. <https://timesmachine.nytimes.com/timesmachine/1967/03/19/107185353.html?action=click&contentCollection=Archives&module=LedeAsset&region=ArchiveBody&pgtype=article&pageNumber=179>

<sup>19</sup> Edward Gibbon. History of the decline and fall of the Roman empire. 2008. P.34.

<https://www.gutenberg.org/files/25717/25717-h/25717-h.htm>

<sup>20</sup> Charles Louis de Secondat, Baron de Montesquieu. Spirit of laws. Complete works. London: T.Evans, 1777. Vol.1. P.57. <https://oll.libertyfund.org/titles/montesquieu-complete-works-vol-1-the-spirit-of-laws>

<sup>21</sup> Castadly Daniel. Democracy in America by Alexis de Tocqueville. 2023. <https://www.ebsco.com/research-starters/literature-and-writing/democracy-america-alexis-de-tocqueville>

“Politics” ya’ni “Siyosat” asarida<sup>22</sup> Tomas Gobbs (1588-1679) “Leviathan” “Liviafan” asarida<sup>23</sup> Jon Lokk (1632-1704) “Two Treatises of Government” “Hukumat haqida ikki risola” asarlarida keltirib o‘tiladi<sup>24</sup>. Psixologik yondashuv vakillari Zigmund Freyd (1856-1939) “Group Psychology and the Analysis of the Ego” (1921) ya’ni, “Guruh psixologiyasi va ong tahlil” asarida siyosiy yetakchilarning xulq-atvoriga individual va guruhiy jihatdan yondashgan hisoblanadi. Bu asarda siyosiy yetakchilarning faoliyatiga siyosatshunoslik va psixologiya fanlari tatqiqot korrelyatsiyasi orqali yondashadi va bu asarda siyosiy yetakchilarning siyosiy irodasi va ta’sir xarakteri davlat va jamiyat suboordinatsiyasidagi munosabatlar ta’sirida shakllinashi aytib o‘tiladi<sup>25</sup>. Chikago sotsiologiya maktabi vakili Garold D. Lassuell (1902-1978) “Psychopathology and Politics” “1930” asarida siyosiy yetakchilarning faoliyatiga nisbatan shaxsiy motivlar, ruhiy holatlar va xulq-atvor ko‘rinishlari bilan yondashgan hisoblanadi<sup>26</sup>. Fransuz olimi Gustav Lebon (1841-1931) “The Crowd: A Study of the Popular Mind” (1895) asarida jamiyat xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatish va unda siyosiy yetakchilarning tutgan rolga psixologik yondashuv jihatdan baho bergan hisoblaladi<sup>27</sup>. Devid Iston (1917-2014) “A Framework for Political Analysis” asarida siyosiy tizim barqarorligi va uning samaradorligida siyosiy yetakchilarning tizim elementi sifatidagi egallagan o‘rni va ahamiyatiga tizimli va aniq yondashgan<sup>28</sup>. Yuqorida qayd etilgan olimlarning ilmiy tatqiqotlari va ularning siyosiy yetakchining faoliyatiga turli paardigmalar jihatdan baho berish va ularni natijalarda ifodash masalalarida ular bir qator yondashuvlarni va paradigmalarni ilgari surishgan hisoblanadi. Ular: Empirik baholash usullari, tahliliy-uslubiy yondashuv, kommunikatsion yondashuv, tarixiy yondashuv, normativ yondashuv, psixologik yondashuv, tizimli yondashuv, media va algoritimik tahlil yondashuvi, inqirozli vaziyatdalarida siyosiy yetakchi faoliyatiga baho berish metodlar hisoblanadi. Davlat boshqaruvida siyosiy yetakchilarning faoliyatini baholash uchun bir qator usullar orqali baholash shakllari va ularning asochi vakillari va shu metodda ilmiy tatqiqot ishini olib borgan olimlar mavjud. Bars usulida siyosiy yetakchilarning faoliyatiga baho berish va ularni asoslash shakllari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, bu borada 1960-yillarda Paul Smit va T.V.Kendallar bu usul orqali siyosiy yetakchilarning faoliyatini aniq xatti-harakatlar asosida baholay boshladilar. Mazkur ilmiy usulda O‘zbekistonda ham ilmiy tatqiqot sifatida o‘rganilgan hisoblanib, bu borada A.Qodirov va Sh.Xasanovlarning “Kadrlarni baholash metodlari” (2010) asarida Bars usulini keltirib o‘tishadi<sup>29</sup>. Peter Draker 1954-yilda “Maqsadlar bo‘yicha baholash” metodlarni

<sup>22</sup> Aristotle’s Political Theory – Stanford Encyclopedia of Philosophy.

<https://plato.stanford.edu/entries/aristotle-politics/>

<sup>23</sup> Thomas Hobbes. Leviathan – Oxford University Press. Way back Machine. 2015. P.57.

<http://ukcatalogue.oup.com/product/9780199602629.do>

<sup>24</sup> Locke: Two Treatises of Government. <https://www.cambridge.org/highereducation/books/locke-two-treatises-of-government/60CF0CAE1CD8CBE03E58D09426A3F80F>

<sup>25</sup> Sigmund Freud. Group Psychology and The analysis of the Ego. <https://www.gutenberg.org/ebooks/35877>

<sup>26</sup> Harold D. Lasswell. Psychopathology and politics. New York: Viking Press. 1966. P.330.

<https://archive.org/details/psychopathologyp00lass>

<sup>27</sup> Gustave Le Bon. The Crowd: A Study of the Popular Mind. Public Domain mark. 1895. P.157.

<https://archive.org/details/the-crowd-a-study-of-the-popular-mind-by-gustave-le-bon/mode/1up>

<sup>28</sup> David Easton. A Framework for Political Analysis. New York: Prentice Hall. 1965. P. 75.

[https://books.google.co.uz/books/about/A\\_Framework\\_for\\_Political\\_Analysis.html?id=JK6aAAAAIAAJ&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/A_Framework_for_Political_Analysis.html?id=JK6aAAAAIAAJ&redir_esc=y)

<sup>29</sup> Jo‘rayeva G.SH. Korxonalarda kadrlarni boshqarish tizimining samaradorligini baholashga metodik jihatlari. Central asian academic journal of scientific research. Volume 2. Issue 4. 2022. 5.b.

boshqaruvda qoʻllagan va siyosiy menejmentda menejer va siyosiy yetakchilarning faoliyatiga ilmiy asosda baho bergan hisoblanadi. Baholash markazlari usuli “Assessment Centers” bu usulga Duglas Bray va Allan Grantlar 1950-yillarda miqdoriy jihatdan baolash asoslarini yaratadi va rivojlantirgan hisoblanadi. Tanqidiy voqealar usuli (Critical Incident Technique) asosida yonduvni ilgari surgan olim Jon Flanagan 1954-yilda ilgari surgan hisoblandi. Oʻzbek olimlaridan Z.Ergashev tanqidiy voqealar usuliga tayanib, psixologik va ijtimoiy tahlilni olib borgan uning “Rahbarlik faoliyatining baholash metodlari” (2018) nomli maqolasida siyosiy yetakchilarning faoliyatiga baho berib oʻtadi<sup>30</sup>. 360 darajali baholash usulining siyosatshunoslikda siyosiy yetakchilikda muhim usul hisoblanadi. Bu usul Peter Vard, Richard Lepsinger tomonidan joriy etilgan. Xalqaro amaliyotda siyosiy yetakchilarning faoliyatiga transformatsion va tranzaksion baho berish modellari ham mavjud. Bu usulni James Makgregor Byorns va Bernard Basslar olib kirishgan.

### **MUHOKAMALAR.**

Ushbu ilmiy tatqiqot ishida dolzarb vazifalardan biri sifatida “Siyosiy yetakchi” fenomeni hamda uning konseptualizatsiyasini faoliyat nuqtalaridagi harakatlar dinamikasi shkalasini keltirish hamda bu jarayondagi vaziyatlar kontekstini tizimli va analogik nuqtai nazardan oʻrganish orqali davlat boshqaruvida yaxlit “Siyosiy yetakchi porteti” ni paradigmal jihatdan asoslash muhim hisoblanadi. Biroq, bu masala siyosiy jarayonlardagi bir qator oʻzgaruvchilar oʻrtasida boshqa shakllarni va natijalarni namoyish etishi ham mumkin. Sabab sifatida Oksford universiteti professori Frimanning ilmiy tatqiqot ishlarida siyosiy jarayonlardagi har qanday harakat va vaziyat 3 muhim elementlar asosida oʻzgarishi mumkin deb eʼtirof etiladi. Bular, tarixiy vaziyat, muhit, jarayonlar dinamikasi hisoblanadi<sup>31</sup>. Bu boradagi taniqlar ham mavjud. Bir qator davlatlarning olimlarini fikriga koʻra, siyosiy yetakchining faoliyatidagi barqarorlik va beqarorlik darajalari va koʻrinishlari bu siyosiy jarayonlar emas, siyosiy aktorlar va siyosat subyektlarining harakatlariga ham bogʻliq holda eʼlon qilinadi. Davlat boshqaruvida mazkur siyosiy yetakchi faoliyatini baholash va uning ijobiy tomonlari asosida muayyan andozalarni shakllantirish, bu siyosiy yetakchilar faoliyatidagi avtoritar hokimiyat elementlarini ham yaratishi mumkinligi qayd etiladi. Bu esa, davlat boshqaruvidagi xalqning erkin irodasi va taʼsirini kamaytirishga va bundan kutilgan natija esa, davlat boshqaruvidagi beqarorlik holatini keltirib chiqarishga sabab boʻladi. Siyosiy yetakchilar fenomeniga ilmiy-nazariy jihatdan yondashish, amaliy tahlil va usullarni nazariy shaklda maʼlum qilish ham baʼzida oʻz taʼsir nuqtasini va koʻrinishini bermasligi mumkin. Biroq siyosiy yetakchilar qoʻlida siyosiy hokimiyat resurslari ham mavjudligini inkor etib boʻlmaydi. Bu orqali esa, siyosiy hokimiyat eshiklarida “Kristallik” holati mavjud boʻlishi mumkin. Siyosiy hokimiyat hamda davlat boshqaruvi definitiyalarida siyosiy yetakchilarning faoliyati asosiy strategik pozitsiyaga va ahamiyatga ega hisoblanadi. Siyosiy yetakchilar faoliyatini tahlil qilish va uning asosidagi siyosiy texnologiyalarni yaratish va uning amaliy koʻrinishlarini ishlab chiqish, siyosatshunoslikning tatqiqot obyektidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Siyosiy yetakchilarning faoliyatiga turli olimlarning yondashuvi jihatdan tahliliy baholar berish va

<https://cyberleninka.ru/article/n/korxonalarda-kadrlarni-boshqarish-tizimining-samaraliligini-baholashga-metodik-jihatlarini/viewer>

<sup>30</sup> Ortiqov U.A. Rahbar kadrlar va ularning samaradorligini baholash. “Raqobatdosh kadrlar tayyorlash fan-taʼlim-ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2023. 807-b. <https://zenodo.org/records/10160277>

<sup>31</sup> Mirzaaxmedov K.M. Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlili. Maʼruza. 2023. 2-3-b.

uning asosidagi yondashuvlarni muayyan chiziqlar dinamikasida keltirish bu jarayon dinamikasidagi muhim xususiyat hisoblanadi. Lekin yondashuvlar va tahlil usullari baʼzida bir-birini inkor etishi ham mumkin. Siyosiy yetakchilar faoliyati davlatning tashqi va ichki siyosat vektorlarida muhim koʻrsatkichga egadir.

Biroq, siyosiy yetakchilar faoliyatiga baho berishda ular faoliyat yuritayotgan davlatning ham boshqaruv va tuzilish elementlariga baho berish zarur hisoblanadi. Sababi, postindustrial jamiyatga ega boʻlgan rivojlangan davlatlarning siyosiy yetakchilarini siyosat vektorlari va industrial jamiyat hamda industrial jamiyatga oʻtish pogʻonasidagi jamiyatlarning siyosiy yetakchilarini faoliyatidagi siyosat vektorlari tahlili va ularning prognozikasi tubdan bir-biridan farq qiladi. Buni tahlil qiluvchi tatqiqotchi ham bu borada “Qiyosiy tahlil”dan foydalanishi samarali hisoblanadi. Lekin, baʼzi tatqiqotchilarning deduktiv va induktiv yondashishi muayyan kamchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin hisoblandi. Sababi, siyosat markaziga shaxsni qoʻyish va uning asosiy subyekt sifatidagi pogʻonasini koʻrsatish tashkilotning subyekt sifatidagi oʻrniga nisbatan muayyan bahsli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin hisoblanadi.

### **XULOSA.**

Demak, mazkur ilmiy tatqiqot ishida siyosiy yetakchilar faoliyatiga tahliliy yondashish hamda ularning ilmiy-nazariy asoslarini keltirib oʻtish dialektik qonuniyatga ega hisoblanar ekan. Bu borada siyosiy yetakchilar faoliyatini toʻgʻri va aniq tahliliy jihatdan baho berish ham muhimdir. Zamonaviy davlat boshqaruvida siyosiy yetakchilar faoliyatini baholashning nazariy usullari va amaliy usullari bu siyosatshunoslikda nazariy va amaliy bilimlarning foydalanadigan tatqiqot yoʻnalishlariga hamda usullariga koʻra farqlanishi maʼlum boʻldi. Siyosatshunoslik sohasida “siyosiy yetakchi fenomeni” tahlili va uning faoliyatiga yondashish muayyan progressiv xarakterga egaligi ham aniqlandi. Shuningdek, siyosiy jarayonlarda siyosiy yetakchining imiji, brendi, uning yetakchilik qobiliyatlari hamda uning boshqaruvda foydalanadigan resurslari tatqiqot jarayonida turli siyosiy rejimlar, siyosiy mafkuralar va siyosiy tizimlar doirasida yaxlit boshqa shaklda namoyon boʻlishi va unga muayyan koʻrsatkichlar, indekslar va darajalar berilishi tatqiqot jarayonida amaliy ifodaga ega boʻldi. Zamonaviy davlat boshqaruvi va uni amaliy jihatdan tatqiq etishda “siyosiy yetakchi” definitiviyasining alohida element sifatidagi pozitsiyasi muhim siyosat subyekti ekanligini ifodalaydi. Mazkur jarayon murakkab hisoblanib, uning tatbiqiy shaklini asoslashda nazariy konbinatsiyalar va kategoriyalarning oʻzi yetarli emas hisoblanadi. Bu jihatdan siyosatshunoslik nazariyasida “Institutsional” paradigma muhim koʻrsatkichga egaligi qayd etildi. Chunki, siyosiy yetakchi va uning faoliyatini tahlil qilishda siyosatshunoslikning oʻz tatqiqot arsenalaridan tashqari boshqa fan tarmogʻidagi tatqiqot usullariga ham murojaat etishi aniqlandi.

### **References:**

#### **Используемая литература:**

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) Biturayev Oʻ.B. Siyosatshunoslika kirish (oʻquv qoʻllanma) Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2017, 169-b.
- 2) Muhitdinova F.A. Siyosiy va huquqiy taʼlimotlar tarixi. Darslik. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti. 2011. 224-b.

- 3) Weber Max. The Protestant ethic and the spirit of capitalism. New York: Charles Scribner's sons. London: George Allen & Unwin LTD. 1905. P.126-134.  
<https://archive.org/details/protestantethics00webe/page/126/mode/2up>
- 4) Weber Max. Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology. University of California Press, 1978. P. 345.  
[https://books.google.co.uz/books/about/Economy\\_and\\_Society.html?id=pSdaNuIaUUEC&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/Economy_and_Society.html?id=pSdaNuIaUUEC&redir_esc=y)
- 5) Robert A. Dahl. Who Governs: Democracy and Power in an American City. N.Y: Yale University Press. 1961. P. 355.  
[https://books.google.co.uz/books/about/Who\\_Governs.html?id=g1oLAQAIAAJ&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/Who_Governs.html?id=g1oLAQAIAAJ&redir_esc=y)
- 6) Robert A. Dahl. Democracy and its critics. Yale University Press, New Haven and London 1989. P.231.  
[https://books.google.co.uz/books?id=VGLYxulu19cC&printsec=frontcover&redir\\_esc=y#v=onepage&q&f=false](https://books.google.co.uz/books?id=VGLYxulu19cC&printsec=frontcover&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false)
- 7) Harold D. Lasswell. Psychopathology and politics. New York: Viking Press. 1966. P.23.  
<https://archive.org/details/psychopathologyp00lass>
- 8) Harold D. Lasswell. Who gets what, when, how. New York: Whittlesey House. 1936. P. 14.  
<https://www.cambridge.org/core/journals/american-political-science-review/article/abs/politics-who-gets-what-when-how-by-harold-d-lasswell-new-york-whittlesey-house-1936-pp-ix-264/90C407BEDE6963B3D2C84FF79C695E1E>
- 9) Weber Max. The theory of social and economic organization. London: Oxford University Press. 1947. P.431. [https://ia804503.us.archive.org/32/items/weber-max.-the-theory-of-social-and-economic-organization-1947\\_202106/Weber%20%20Max.%20-%20The%20Theory%20of%20Social%20and%20Economic%20Organization%20%5B1947%5D.pdf](https://ia804503.us.archive.org/32/items/weber-max.-the-theory-of-social-and-economic-organization-1947_202106/Weber%20%20Max.%20-%20The%20Theory%20of%20Social%20and%20Economic%20Organization%20%5B1947%5D.pdf)
- 10) Carl Schmitt. The concept of the political. New York: University of Chicago Press. 1996. P.21. [https://books.google.co.uz/books/about/The\\_Concept\\_of\\_the\\_Political.html?id=JFqV-VtjllLoC&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/The_Concept_of_the_Political.html?id=JFqV-VtjllLoC&redir_esc=y)
- 11) Hannah Arendt. The Origins of Totalitarianism. New York: Meridian Books, The world publishing company. 1958. P.37.  
<https://archive.org/details/TheOriginsOfTotalitarianism/page/n7/mode/1up>
- 12) Hannah Arendt. On revolution. Berlin: Revue Internationale de Philosophie. 1999. P.207-222. <https://www.jstor.org/stable/23955552>
- 13) Robert A. Dahl. Polyarchy. Participation and Opposition. New Heaven: YaleUniversityPress.1971.P.32.<https://www.cambridge.org/core/journals/italian-political-science-review-rivista-italiana-di-scienza-politica/article/abs/robert-a-dahl-polyarchy-participation-and-opposition-new-haven-yale-university-press-1971-pp-257-275/E2CDE9667B59B621D5C3DE7304F3D204>
- 14) Michel Foucault. Discipline and Punish: The Birth of Prison. Vintage Books,1977.P.333.[https://books.google.co.uz/books/about/Discipline\\_and\\_Punish.html?id=pWv1R2o\\_PWsC&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/Discipline_and_Punish.html?id=pWv1R2o_PWsC&redir_esc=y)
- 15) Aristotel.Ritorika.[https://lib.ru/POEEAST/ARISTOTEL/ritoriki.txt\\_with-big-pictures.html](https://lib.ru/POEEAST/ARISTOTEL/ritoriki.txt_with-big-pictures.html)

- 16) Dale Carnegie. How to win friends & influence people. New York Post. 2021. P.12.  
<https://entertainment.time.com/2011/08/30/all-time-100-best-nonfiction-books/slide/how-to-win-friends-and-influence-people-by-dale-carnegie/>
- 17) Lasswell's model. Communication Theory.  
<https://www.communicationtheory.org/lasswells-model/>
- 18) McLuhan Marshall. Now the Medium is the message. New York Times. Retrieved. 2018. P. 15.  
<https://timesmachine.nytimes.com/timesmachine/1967/03/19/107185353.html?action=click&contentCollection=Archives&module=LedeAsset&region=ArchiveBody&pgtype=article&pageNumber=179>
- 19) Edward Gibbon. History of the decline and fall of the Roman empire. 2008. P.34.  
<Phttps://www.gutenberg.org/files/25717/25717-h/25717-h.htm>
- 20) Charles Louis de Secondat, Baron de Montesquieu. Spirit of laws. Complete works. London: T.Evans, 1777. Vol.1. P.57. <https://oll.libertyfund.org/titles/montesquieu-complete-works-vol-1-the-spirit-of-laws>
- 21) Castadly Daniel. Democracy in America by Alexis de Tocqueville. 2023.  
<https://www.ebsco.com/research-starters/literature-and-writing/democracy-america-alexis-de-tocqueville>
- 22) Aristotle's Political Theory - Stanford Encyclopedia of Philosophy.  
<https://plato.stanford.edu/entries/aristotle-politics/>
- 23) Thomas Hobbes. Leviathan - Oxford University Press. Way back Machine. 2015. P.57.  
<http://ukcatalogue.oup.com/product/9780199602629.do>
- 24) Locke: Two Treatises of Government.  
<https://www.cambridge.org/highereducation/books/locke-two-treatises-of-government/60CF0CAE1CD8CBE03E58D09426A3F80F>
- 25) Sigmund Freud. Group Psychology and The analysis of the Ego.  
<https://www.gutenberg.org/ebooks/35877>
- 26) Harold D. Lasswell. Psychopathology and politics. New York: Viking Press. 1966. P.330.  
<https://archive.org/details/psychopathologyp00lass>
- 27) Gustave Le Bon. The Crowd: A Study of the Popular Mind. Public Domain mark. 1895. P.157. <https://archive.org/details/the-crowd-a-study-of-the-popular-mind-by-gustave-le-bon/mode/1up>
- 28) David Easton. A Framework for Political Analysis. New York: Prentice Hall. 1965. P. 75.  
[https://books.google.co.uz/books/about/A\\_Framework\\_for\\_Political\\_Analysis.html?id=JK6aAAAIAAJ&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/A_Framework_for_Political_Analysis.html?id=JK6aAAAIAAJ&redir_esc=y)
- 29) Jo'rayeva G.SH. Korxonalarda kadrlarni boshqarish tizimining samaradorligini baholashga metodik jihatlari. Central asian academic journal of scientific research. Volume 2. Issue 4. 2022. 5.b. <https://cyberleninka.ru/article/n/korxonalarda-kadrlarni-boshqarish-tizimining-samaraliligini-baholashga-metodik-jihatlari/viewer>
- 30) Ortiqov U.A. Rahbar kadrlar va ularning samaradorligini baholash. "Raqobatdosh kadrlar tayyorlash fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2023. 807-b.  
<https://zenodo.org/records/10160277>